

POLISEMIYA TURLARI

Qo'chqarova Shoxsanam Elbek qizi

*Qo'qon Davlat Pedagogika Instituti Ta'lim-tarbiya nazaryasi va metodikasi
(boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi 2-kurs magistranti, Furqat tumani 7-maktab o'qituvchisi.
shoxsanamelbekovna@gmail.com +998999020996*

Annotatsiya: *Ushbu tezisdagi polisemiya tushunchasi, polisemiya turlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Polisemiya, radial, zanjirsimon, radial-zanjirsimon.*

Ko'p ma'nolilik, polisemiya — til birliklarining birdan ortiq ma'noga ega bo'lishi. Ko'p ma'nolilik — ko'p qirrali va murakkab hodisa. Deyarli har bir so'zning lug'aviy ma'no taraqqiyoti aniq, individual yondashishni, izohlashni talab qiladi. Ko'p ma'nolilik ma'nosi faqat matnda bilinadi. Onamning ko'zi hali yaxshi ko'radi (a'zo); buloqning ko'zi, igvaning ko'zi (teshik); uzukning ko'zi (uzukka qo'yilgan tosh); taxtaning ko'zi (taxtadagi doira shakl) [4].

Polisemiyaning ham bir nechta turlari mavjud bo'lib ular turli kategoriyalar bilan guruhlanadi. Hakimova M. ularni quyidagicha tasnif qilgan:

Polisemiya ikki belgi bo'yicha guruhlanadi.

I. Hosila ma'noning bosh ma'no bilan munosabatiga ko'ra:

1. Radial
2. Zanjirsimon
3. Radial-zanjirsimon.

II. Ma'nolarning oppozitsiyasiga ko'ra:

1. Assotsiativ.
2. Mazmuniy-assotsiativ.

Radial polisemiya barcha hosila ma'nolar bosh ma'no bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Uning sxemasi aylana radiusiga o'xshashligi tufayli radial polisemiya deb yuritiladi [1, 62]. O'zbek tilida zimiston leksemasi ko'p ma'noli bo'lib, uning hosila ma'nolari bosh ma'nodan bevosita kelib chiqqan. Zimiston leksemasining bosh ma'nosi "qish" ni ifodalaydi va bu ma'noni zimiston 1 deb belgilaymiz. Zimiston leksemasini 4 ta hosila ma'nolarini ajratish mumkin: zimiston 2 — yorug'lik, oftob nuri tushmagan joy; zimiston 3 — qop-qorong'u, tim qorong'u, zim-ziyo. Zimiston 4 — Ro'shnolikdan mahrum, ziyodan mahrum hayot. Zimiston 5 — noma'lum, qorong'u narsa; noma'lumlik. Zimiston leksemasining ushbu barcha hosila ma'nolari "qish" zimiston fasl, quyosh nuri tushmaydigan fasl ni ifodalovchi zimiston 1 sememasidan metafora usulida bevosita hosil bo'lgan.

Mirtojiyev esa bu hildagi bog'lanishni yelpig'ichsimon bog'lanish deb deb yuritadi [3].

Zanjirsimon polisemiya hosila ma'nolar birin-ketinlik bilan bog'lanishni hosil qiladi va sxemasi zanjirga o'xshaydi. Bunda bosh ma'no o'zidan keyingi hosila ma'no bilan

bevosita, qolgan hosila ma'nolar bilan esa bilvosita bog'lanadi. Polisemiyaning mazkur turida to'ng'ich bosh ma'no, nisbiy ma'no kabilarni ajratish mumkin [1,63]. Bunday bog'lanishga belbog' leksemasidagi ma'nolarning taraqqiyotini misol qilib ko'rsatishimiz mumkin. Belbog' leksemasining "belga bog'lanadigan, to'rtburchak ro'mol shaklidagi gulli yoki gulsiz, chetlari tikilgan mato parchasi; qiyiq, qiyiqcha" bosh ma'nosidan "umuman belga belbog' qilib bog'lanadigan narsa" ma'nosi; va mazkur hosila ma'nodan boshqa hosila ma'no "har narsaning o'rta belidan o'tgan faraziy chiziq yoki halqa; ekvator" manosi; va "quvvat mador ko'makdosh" kabi hosila ma'nolar unib shakllanishiga asos bo'lgan. Bunda birinchi hosila ma'no ikkinchi hosila ma'no uchun nisbiy hosila ma'no hisoblanadi.

Radial-zaanjirsimon polisemiya esa bitta polisem leksema ma'nolari esa o'zaro ham radial, ham zanjirsimon bog'lanadi. Ya'ni bir leksema ma'nolari o'rtasida yuqoridagi har ikkala bog'lanish usuli ham aralash holda bo'ladi. O'zbek tilida dur leksemasi polisemem bo'lib, uning ma'nolari radialsimon bog'langan. Bunda dur 1 — injuning, gavhrning yirik turi; dur 2 — bebaho yoki eng yaxshi, a'lo, sara narsalar haqida; dur 3 — qimmatli sermazmun, chuqur ma'noli so'z yoki she'r haqida; dur 4 — yorug'lik, yog'du; dur 5 — meva, samara, hosil, natija; dur 6 — boylik, davlat, qut-baraka; dur 7 — suv va unga o'xshash tovlanuvchi narsalar (tomchi, shudring, qor uchqunlar [2,667].

Polisemantik leksema ma'nolarining oppozitsiyasiga ko'ra polisemiyaning assotsiativ va assotsiativ-mazmuniy turlarga ajratish maqsadga muvofiq [1, 65].

Polisemiyaning navbatdagi guruhlashning birinchi turida ya'ni assotsiativ polisemiya ma'nolarning semantic strukturasi, tarkibi bir-biridan farqli va ancha uzoq bo'ladi. Ushbu ma'nolar faqat assotsiativ munosabatlar asosida bog'lanish hosil qiladi. Masalan: Masalan, ezmoq (narsani ezmoq) va (yuragini ezmoq), bo'sh (bo'sh narsa) va (bo'sh odam), achchiq (achchiq ta'm) va (achchiq haqiqat). Ushbu turdagi polisemiyaning tilimizda juda ham ko'p uchratishimiz mumkin. Qisqacha qilib aytadigan bo'lsak, bunda bir leksema bilan bir-biridan uzoq bo'lgan ma'nolar ifodalanadi. Shunisi ahamyatlilik, assotsiativ polisemiya hosila ma'noning reallashuvi uchun qo'shimcha kontekst kerak bo'ladi. Assotsiativ-mazmuniy polisemiya ko'p ma'noli leksema anglatayotgan ma'nolar va ularning semantic tarkibi bir-biriga yaqin bo'ladi [1, 65]. Masalan, zolim leksemasining bosh ma'noda zulmkor, mustabid ma'nosini ifodalasa, 1- hosila ma'nosi "zulm qiluvchi, zulmkor, jabr qiluvchi", 2-hosila ma'nosi esa, "rahm-shafqatni bilmaydigan, berahm" kabilarni ifodalaydi. Bu turdagi polisemiya ma'nolar nafaqat assotsiativ bog'lanadi, balki mazmunan ham bir-biriga yaqin bo'lib, ular o'zaro yaqin narsalarni nomlaydi. Va ularning semantic strukturasi o'xshash bo'ladi ya'ni bir leksema tarkibidagi sememalarda umumiy, bir xil semalar miqdoran ko'p bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hakimova M. Semasiologiya / Toshkent, 2008. – 100 b.
2. Mirtojdiyev M. O'zbek tilida polisemiya. – Toshkent: Fan, 1984. — 135

3. O'TIL. Ikkinchi jild. Toshkent, 2006.
4. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.